

TONG YULDOSI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan

Nº 38 (66319)
2001 yil 21 sentyabr, juma

Sotuvda erkin narxda

Bolalikni hamma shirin zavq bilan eslaydi. Chindan ham bolalikda eng pokiza, samimiyatga to'la kunlar mo'l bo'ladi. Ayniqsa, birinchi ustozing quvonch to'la ko'zlaringga mehr urug'larini qadaganida... Ustoz degani chin ma'noda mehr va sadoqat bilan to'lib toshgan inson demakdir. Xotiralar meni yana ustozlar hayotiga boshlab borayapti.

Biz sinfdoshlar o'zimiz sevgan o'qituvchilarimizga juda ham suyanardik. Dugonamiz bilan kelisholmay yurgen paytlarimizda bizni qiyab turgan savollarimizni ham ustozdan yashirmsa edik. Vaqt kelsa sir va rejalarimizni ham aytar edik. O'qituvchining esa qalbi anhorda oqayotgan tiniq suvga o'xshardi. Hech birimizning ko'nglimizni cho'ktirmay, do'stona maslahatlar berardilar. Shundan bo'lsa kerak, mana oradan yigirma yil o'tsa hamki biz sobiq sinfdoshlar bir-birimiz bilan hali ham do'st va ahilmiz.

Sizga to'lib-toshib, qalb mehrimni ochib hikoya qilayotgan sevimli o'qituvchim Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumanidagi 9- o'rta maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Muborakxon Alimatovadir. Bu inson nafaqat mening balki barcha shogirdlarining ko'ngidan joy olgan. Muborakxon opaning bolalardek

USTOZ DEGANI....



«Seni ham o'zim o'qitay», deydi zahmatkash ustoz Qumri ABDULLAYEVA. (8-betga qarang).

beg'ubor qalbi bor edi. Sinfdag'i har bitta qoloq o'quvchini ham sizlab gapirar, uch baho emas, to'rt baho qo'yib, ko'nglini ko'tarardi. Natijada ana shu o'quvchilar ham ustoz mehridan quvonardi. Keyingi darslarga faol qatnashardi. Adabiyot va ona tili darslari

ana shu ustoz tufayli qiziqarli va bahsli o'tardi. O'quvchilar qalbida uyg'ongan eng oddiy savol ham Muborak opaning javoblaridan mazmun va mohiyatga aylanardi. Ustozning har bir kunini yozadigan bo'lsam, dunyodagi eng go'zal so'zlar ham yetmayotgandek...

Aziz bolalar, hademay aziz ustoz va murabbiylar kuni keladi. Siz o'z muallimlaringizni xursand qilish xayolida band bo'lib yuribsizmi?

Yoki shoshiling, 1 oktyabr mamlakatimizda qadrondan ustoz va murabbiylar kuni!

Bir kuni g'olibona yurishlardan qaytg'an sarkardani kutib olish uchun o'z yurtining aholisi yig'ilibdi. Otda mag'rur va g'alabalardan ko'ksi to'Igan sarkarda yoshlar gul ko'tarib yuguribdilar. Ammo sarkarda bu gullarni olishdan voz kechibdi. Bir chekkada soqollari ko'ksiga tushgan nuroni ycholni ko'rsatib, "Ana shu gullaringizni u kishiga beringlar. Chunki mening mashhur sarkarda bo'lishim, yutuqlarga erishishim shu inson tufaylidir", debdi. Qarang, mashhur sarkardaning ustozga bo'lgan hurmatini. Chindan ham yillar o'tib ustozlardan uzoqlashar ekanmiz, ularning qalbimizga oydin nurlar bergani, faqat ezgulik bilan eslashga arzigelik xotiralari umr mazmunimizga mazmun baxsh etaveradi. Men ham Muborakxon Alimatovani hayotda eng quvongan kunlarimda, yutuqlarga erishganimda sog'inch va hayajon bilan eslayman.

Ma'mura MADRAHIMOVA.

O'ZBEKISTON BOYLIKLARI

Men Oqtosh shahar, Narpay tumanidagi „Yosh texniklar“ ijodiyot markazidagi kulolchilik to'garagiga qatnashaman. Besh yillardiki ustozimizdan kulolchilik sirlarini o'rganib kelayapman.

Yaqinda „O'zbekiston boyliklari“ deb nomlangan eksponatim bilan Respublika ijodkor-ixtirochi bolalar ko'rgazmasida ishtirot etdim. Vatanimizning boyligi bo'lgan paxta, pilla, g'all, neft, oltin kabilarni kitobga o'xshatib tayyorladim. Bu ishimdan atrofdagilar xursand bo'ldi. Chunki O'zbekistonimizning boyliklarini saqlash, asrab-avaylash bizning burchimizdir.

Xurshid KARIMOV,

Samargand viloyati, Narpay tumanidagi 59- maktabning 9-„A“ sinf o'quvchisi.

BUG'DOY TOZALAGICH YASADIM

Men texnikaga qiziqaman. Shuning uchun ham tumanimizdagidagi „Yosh texniklar“ ijodiyot markazidagi duradgorlik, yog'och o'ymakorlik to'garagiga qatnayapman. Yaqinda ustozim Sherli aka Normurzayev boshchiligidagi bug'doy tozalagich asbobini yasadim. Bu qurilma 12 volt tokda ishlab, bir soatda 240 kilogramm bug'doyni tozalab beradi.

Maqsadim, qishloq sharoitida yashaydigan insonlarning og'irini yengil qilishdir. Ularga foydam tegsa, o'zimni baxtiyor hisoblayman.

Sherzod IBODOV,

Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumanidagi Akmal Ikromov nomli 68- maktabning 7- sinf o'quvchisi.



Va niyoyat, "BMT bilan o'yna" viktorinasiga yakun yasaldi. Yodingizda bo'lsa, viktorinaning birinchi bosqichi shu yil 20 maydan 10 iyulgacha davom etgan edi. 98 naflar ishtirokchi 15 balldan yuqorisini egallagan bo'lsa, ulardan to'rt nafari finalga yo'llanma olgandi. Bu haqda gazetamizning 29-sonida batafsil to'xtalganimiz.

O'sha kuni "Interkontinental" mehmonxonasining "Amir Temur"

JENEVAGA YO'LLANMA

zalida hayajon hukmron. Barcha "G'oliblik shohsupasi kimga nasib etarkin" degan o'y bilan sahnadan ko'z uzmaydi. Ishtirokchilarni qutlash uchun Xalq Ta'limi Vazirining birinchi o'rinososari Rustam Axliiddinov, BMTning O'zbekistondagi doimiy vakili Richard Konroy so'zga chiqdilar. So'ng videotasmada BMT Bosh Kotibining o'rinososari va BMT iqtisodiy komissiyasining kotibi Danuta Xyubnerring tabrigi namoyish etildi. Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Namangan va Nukusdan kelgan 98 naflar ishtirokchilarga BMTning Bosh Kotibi Kofi Anan dastxati qo'yilgan diplom va sovg'alar topshirildi. Shuningdek, tashrif buyurgan mehmonlar O'zbekiston Xalq artisti Farrux Zokirov va Nasiba Abdullayevalar faxriy o'rin sohibi Rinat

Kilkeyevni qur'a asosida birinchi o'ringa loyiq deb topdilar. U Jenevaga yo'llanmani qo'iga kiritgandi. "Yoshlar telekanali" ning muharriri Furqat Zokirov ikkinchi o'rin sohibasi Anastasiya Luzinovaga shaxsiy kompyuterni topshirdi. Uchinchi o'rin egasini Sevara Nazarxon va DJ Max aniqlab berdi. Aleksey Gluxovsev videomagnitonli bo'ldi. Renat Shakurovga esa CD pleyyer topshirildi. Undan tashqari bir oy davomida seshanba va payshanba kunlari "Oriyat-Dono" radio to'lqinlari orqali o'ynalgan tanlov g'oliblariga va eng yosh ishtirokchilarga hadyalar berildi. Viktorina homiyulari "Interprobiznes" korporatsiyasi, "Sharq-Mir" firmasi, BMT Ko'ngillilar dasturi va boshqalar bolalar ko'nglini tog'dek ko'tardilar. «Oz bo'lsa-da, biroq

murakkab savollarga to'g'ri javob topish qiyin bo'lmadimi?», savol bilan murojaat qildim Renat Kilkeyevga. Asosan Internetda ishladim. Bilasizmi, javoblar to'g'ri ekaniga ishonch hosil qilish uchun internetdagidagi BMTga oid sahfani necha marotalab o'qib chiqdim. Izlanishlarim bekorga ketmaganidan bugun boshim ko'kka yetdi. Eng olyi sovrin egasi bo'lganimga ishongim kelmaydi.

Ha, go'zal Shvetsariyaga sayohatni kim ham orzu qilmaydi deysiz. Bugun shunday imkoniyatlar mavjudki, o'z bilimi bilan o'quvchilar ezgu niyatiga yetishishi mumkin. Ularga barcha sharoit yaratib berilgan.

Bugungi yangi avlodning xalqaro tashkilotlarga qiziqishi, uni puxta bilishi biz kattalarning ulkan yutug'imizdir.

Muharrama PIRMATOVA.
Surat muallifi Olga LISENKO.

BIR YILDA TO'RT MUCHAL TO'Y

Bu yil oilamizga qo'sha-qo'sha shodiyonalarni hadya etdi. Avvalo Fotima -Zuhra, Ozoda va Diyorbeklardek jivanlik bo'ldim. Yana oila a'zolarim - dadam, ayam, akam hamda ukam o'z muchal to'yini qarshiladilar. To'ylar gashti bo'lakcha bo'lar ekan. Axir ota-bobolarimiz har yili tug'ilgan kunni nishonlamay, faqatgina muchalnigina katta bayram qilib o'tkazishganku. Odam muchaliga kirganda qizil rangli ko'ylak kiyib, etagiga tuz solib, barchaga tarqatishi kerak ekan. Biznikilar ham shunday qilishdi.

Oynisa HOJIYEVA,
Buxoro viloyati, Vobkent
tumanidagi
1-iqtidorli bolalar
gimnaziyasi o'quvchisi.


OQIBAT RISHTASI

Hayot turli ajoyibotlari g'aroyib voqealarga boy.

Bir kuni otam bir just kaptar olib keldilar. Biz kaptarlarning oppoq ko'ksini g'oz ko'tarib, tovsudek viqor bilan yurishlariyu chiroli parvozini zavq bilan tomosha qillardik. Narkaptarga Lochin, modasiga Tovus deb nom qo'ydk. Xayolan ularning tezroq ko'payishini istardik. Lekin nima ham bo'ldiyu bir kuni Tovusimiz kasalga chalinib qoldi. Uning tuzalmasligini bilgan dadam Lochinning yoniga Oqqush nomli chinni kaptar olib keldilar. Biz ilgarigidek ularning parvozini zavq bilan tomosha qillardik. Lekin ko'zimiz Tovusga tushishi bilan unga rahmimiz kelib, dilimiz vayron bo'lardi...

Bir kun men zimdan kaptarlarni kuzatardim. Shunda ajoyib bir voqeanning guvohi bo'ldim: Oqqush bilan Lochin Tovus yotgan xona darvozasining toqiga qo'nishdi. Keyin asta ichkariga uchib kirishdi. Uch kaptar ku - kulashib rosa gurunglashishdi. Anchadan keyin Oqqush bilan Lochin chiqib ketishdi. Men esa hayratdan lol bo'lib qolgandim, go'yo. Ertasi kuni bu hol yana takrorlandi. Ularni kuzatar ekanman, mehr-oqibat nafaqat insonlarga, balki parranda-yu darrandalarga ham xos fazilat ekanligiga yana bir bor amin bo'ldim.

Nargiza PAYZIYEVA,
Alisher Navoiy nomli Respublika Nafis
san'at litseyining 10- "A" sinf adabiyot
guruhi talabasi.



"MAKON QUR TOZA YURAKKA"

Naqadar sof va mazmunli satr go'zallik va sadoqat bilan yashab ijod etgan Zulfiyaxonim qalamiga mansub. Agar ular hayot bo'lganlari bu yil 86 yosh bo'lardilar. Men ularning kitoblarini o'qir ekanman, har bir satr mazmunini chaqishga, she'rni anglashga urinaman. Ulardek shoira bo'lishga intilaman. Buyuk ustoz, mehribon ona Zulfiyaxonim bugun zamonamiz qahramonlardan biri. ularning o'zbek she'riyati yo'lidagi mehnatlarini O'zbekiston o'z tarix zarvaraqlariga bitib qoldirdi. She'riy to'plamlari qanchadan qancha avlodlarga she'riyat haqida dars bergay.

*Yorqin YORMUHAMMAD,
Xorazm viloyati, Gurlan tumanidagi Beruniy nomli
maktab o'quvchisi.*

XATLAR TEGIRMONI



Qulaynog'omlar aruning moxsosu

YOMG'IR

Yomg'ir yog'di sharillatib,
Chaqmoq chaqdi
gumburlatib,
Ariqlarga suv to'ldi.
Yerlar shalabbo bo'ldi.
Zumda osmon yorishib,
Quyosh chiqdi charaqlab.
Ko'ngillar ravshan tortdi;
Xuddi ko'kdek yaraqlab.

QALDIRG'OCH

Qaldirg'ochim, qaldirg'och,
Uchasan lochin bo'lib.
Qanotlarining oq-qora,
Quvonch, shodlikka to'lib.
Uyimiz peshtoqida,
Issiqliq ining bor.
Olislarga ketmasdan,
Biznikida qishlab qol.

*Feruza TULYABOYEVA,
Toshkent viloyati,
Qibray tumani.*

TO'QSON YOSHLI BUVAJONIM

Buvajonim to'qson bilan to'qnashgan bo'lsalar-da (ko'z tegmasin) juda tetiklar. ularning juda bopoyon uzumzorlari bor. Har kuni uzumzor oralab yurib, har bir tup tok bilan so'zlashadilar desam mubolag'a bo'lmaydi. Hozir uzumlar ayni pishgan palla. Ular avvalo bizlarni siylaydilar.

-Vitamin va glyukozaga to'la uzumlarni danagidan shirin mag'iz-nabiralarim yeyishsin. Ortgani mehmonlarga, yana ortib qolsa bozorga, - deydilar. Buvam ikkinchi jahon urushida yaralanganlar. Hozir ikkinchi guruh nogironi bo'lishiga qaramay, mehnat bilan band bo'ladilar. Bizlarga ham Vatan haqida, ona tuproq haqida ko'p hikoyalarni so'zlab beradilar. Biz hammamiz buvamdan o'rnak olishga, ularning yuzlarini yerga qaratmaslikka harakat qilamiz.

*Gulnoza MUSAJONOVA,
Toshkent shahri,
249-maktabning 8-sinf
o'quvchisi.*



MARVARID SHUDRING

Bugun tongni qarshilash uchun barvaqt uyg'ondim. Quyoshning zarrin nurlari yuzimdan siypalab o'tdi, nazarimda. Bog'dagi asalarilar, gullar, qushlar, butun mavjudotlar bilan birligida tabiat uyg'ondi. Tomchi-tomchi marvaridga o'xshash shudringlar tabiat chehrasini yuvganday, go'yo. Sollolanib tebranayotgan atirgullar o'z atrini sochish bilan ko'rkini ham namoyish etayotganday. ularning shitir-shitiri qulog'ingizga sirli so'z so'zlayotganday. Beixtiyor tilimga dilimdagagi satrlar kela boshladи.

*Tong otmoqda, musaffo tongga,
Yuragini tutar odamlar.
Shu tong uchun kelgan jahonga,
Va shu tong deb ketar odamlar.*

Dilafro'z OYDINOVA,
Samarqand viloyati, Narpay
tumanidagi 59-o'rtta maktab
o'quvchisi.

MAHALLAMIZDA TO'GARAK

Mana, kuz ham boshlandi. Lekin quyosh o'zining zarrin nurlari bilan hamon hammayoqni qizdirmoqda. Bolalarning ko'cha changitib to'p tepishlari avjida. Sirg'ali tumanidagi Shukur Burxonov mahallasida esa bunday odat kun sayin kamaymoqda. Buning sababi mahallamizda naqqoshlik to'garagini tashkil qildilar. Ularga "Behzod" nomidagi oliygoh talabasi Maylonov Doniyor ustozi qilib, naqsh sirlarini jon dili bilan o'rgatmoqda. Mahalla bolalari ham bu to'garak haqida eshitib qoldilar. Ularda ham naqsh chizishga qiziqliklari uyg'onib, to'garakka qatnasha boshladilar. Bolalarning soni kundan kunga ortib borganligi sababli xonardon torlik qildi. So'ng, Mahfuza opaning jon kuydirganligi tufayli to'garak uchun mahalladan bir shinamgina xona ajratildi.

Doniyor aka o'quvchilari bilan birligida u yerni jihozladilar. Devorlarga bolalarning o'z qo'llari bilan yaratgan ajoyib kompozitsiyalarini ildilar. Xona juda ham ko'rkam bezatildi.

Biz to'garakka borib yosh naqqoshlar bilan suhbatlashdik, ularning ijdolari bilan tanishdik, g'ururlandik. Ularga kelajakda ulkan zafarlar tilab qoldik.

Darhaqiqat, do'stlar, vaqtinigizni bekorga sarflamang, foydali ishlar bilan shug'ullaning. Buning uchun esa bizda barcha shart-sharoitlar mavjud. Doniyor akaga o'xshash qalbi keng ustozi ko'payaversa, bekorchi bolalarning soni ham kamayardi.

*Go'zal UMAROVA,
Sirg'ali tumanidagi maktabning
9-sinf o'quvchisi.*

Toshkentning Yakkasaroy tumanida ajoyib bir maskan bor. Beshchinor ko'chasida joylashgan Bolalar va o'smirlar markazi qoshidagi tasviriy san'at studiyasida o'tkaziladigan tadbir haqida eshitib, u yerga shoshdik. Bizni markaz rahbari, O'zbekiston xalq ta'lifi fidoyisi Dmitriyeva Yelena Yuryevna iliq qarshi oldi va markaz faoliyati haqida gapirib berdi.

Studiyamizga 1990 yilda asos solingan bo'lib, shu davr mobaynida ikki mingdan ziyod o'g'il-qiz o'z badiiy qobiliyatlarini rivojlantirdilar. Hozirgi kunda ikki yuz nafar bolalar plastika (haykaltaroshlik va keramika), dizayn (badiiy konstruksiyalash), teatr, kostyum va qo'g'irchoq, grafika va reklama kabi guruhlarda shug'ullanishmoqda.

Biz studiya xonalari bo'ylab kichik sayohat o'tkazib, qizg'in kechayot-gan ijodiy jarayonning guvohi bo'ldik: kimdir matoga surat chizayapti, kimdir sopol o'yinchoqlar yasayapti, yana kimdir qo'g'irchoq - Malika uchun libos tikish bilan mashg'ul. Ular yasagan o'yinchoqlar orasida Bo'rivoy va Tulkinsoni, Miyoviddin va Uloqchani, Xo'tikvoy va Bo'taloqni, Buzoqcha va Toyloqni, hattoki to'rt boshli Timsohni ham uchratdik. Yosh haykaltarosh Albert Sulaymonov yasagan sopol o'yinchoqlar boshidan kechirgan sarguzashtlari ning ham guvohi bo'ldik.

...Bir kuni Albert loydan Buzoqcha va Toychoq yasab, ko'rada pishiribdi, sirtiga lojuvard yogurtrib, oftobda qurisin deb stol ustiga qo'yibdi.

SOPOL O'YINCHOQLARNING G'AROYIB

SARGUZASHTLARI

(Reportaj)

Kuddi shu yerda, burchakdag'i eski, darz ketgan mo'ndida to'rt boshli Timsoh yasharkan. Tun chodrasini yopinib, bolalar uy - uylariga, kapa - tuynugiga tarqab ketishganida, mo'jiza yuz beribdi: stol ustidagi dasturxon yam-yashil yaylovga, loy parchalari daraxtlarga, devordagi so'zana esa moviy osmonga aylanib qolibdi. Shu payt Buzoqcha va Toychoqqa jon bitib, dikirlab o'ynay boshlashibdi. Oyoqlarinidepsinishidan daraxtdagi nashvati uzilib, naq Toychoqning boshiga tushibdi. U bir sapchigan ekan nashvati to'ppa-to'g'ri Timsoh yashaydigan mo'ndiga borib tushibdi. Yovuzligi yu urishqoqligi bois hech kim bilan chiqisholmay, yakkamoxov bo'lib qolgan Timsohning nafsi hakalak otib, n a s h v a t i g a tashlanibdi. Ammo uning to'rttala boshi ham mevani yegisi kelganidan o'rtada janjal chiqibdi. Bu orada nashvati yana To y c h o q n i n g yoniga dumalab borib qolibdi. Toychoq bilan Buzoqcha uni teng bo'lib, baham ko'rishibdi. Ularning ahilligiga g'ayirlik qilgan Timsoh tuzoqqa tushirish maqsadida o'ra qaziy

boshlabdi. O'raning chuqurligidan o'zi qaytib chiqolmay qolibdi va bor ovozi bilan yig'lay boshlabdi. Toychoq bilan Buzoqcha unga yordamga oshiqishibdi. Timsoh qilgan ishidan pushaymon bo'lib, ulardan uzr so'rabdi. Shunday qilib, yosh musavvir Albert yaratgan sopol o'yinchoqlari murodu maqsadlariga yetishibdi...

- Mana bu Kapalakni (qog'oz applikatsiyasi)



studiyamizning eng kenja a'zosi, besh yashar Nastya Sutskova yasagan, deydi Yelena Yuryevna xuddi jonlidek qanotlari titrab

turban kapalakka ishora qilib.- Uning shug'ullanayotganiga hali ikki yil ham bo'lgani yo'q. Ammo u tasviriy san'at sirlarini egallash borasida quvonarli yutuqlarni qo'lga kirityapti. „Diskoteka“, „Shamsiya tagida yashirina olmaysan“ kabi rangtasvir asarlari mualifi Malika Tojiyeva ham iqtidorli shogirdlarimizdan. O'tgan yili uning bir necha asarlari Sietlda o'tkazilgan xalqaro ko'rgazmada namoyish etildi. Birodarlashgan

shaharlar

„Toshkent - Sietl“ xalqaro qo'mitasi raisasi Rozana Royyer xonim ham bu musavvir qizimizning ijodiga yuksak baho berib, uni ko'rgazmaning bиринчи darajali diplomi bilan mu k o f o t l a d i . Fursatdan foydalanim homiylarimiz - „Chodir xayol“ markazi, „EKIP“ xususiy firmasi va „Zumrad“ madaniy markazi rahbarlariga samimi minnat d o r c h i l i k bildirmoq-chiman.

Rangtasvir asarlarini tomosha qilar ekanmiz, Alisher Xo'janiyozovning natyurmort va

portretlari bo'yog'i-ning yorqinligi, mavzuning tuzalligi bilan diqqatimizni tortdi.

Yuliya Labzeyevanining „Fil mingan Bobur“, Natasha Deynikanining „Asalarilar raqs tushganda“, Sofiya Temnikovanining „Kelajak avlodga tinchlik“, Temur O'ljayevning „Geraklning jasorati“, Rustam Bobojonovning „Donishmandlik daraxti“ kabi asarlari ham tomoshabinni befarq qoldirmaydi.

- Men qizimni mana besh yildirki mazkur studiyaga olib kelaman,- deydi Tamara ismli qizchaning onasi. Boshqa studiyalarda, qizingiz yosh ekan, deya qabul qilishmagandi. Bu yerda esa bizni samimi qarshi olishdi. Qizim tasviriy san'at sirlarini o'rganibgina qolmay, yosh ijodkorlarining tuman, shahar, respublika va xalqaro ko'rgazmalarda ham muvaffaqiyatlari ishtirot etib kelyapti. Uning „Timsohlar raqs tushganda“ nomli polotnosi Sietlda o'tkazilgan yosh rassomlarning xalqaro ko'rgazmasida Birinchi darajali diplom bilan taqdirlandi.

- Tasviriy san'atga juda qiziqaman,- deydi yosh musavvir Qahhor Ergashev. Yozgi ta'tilda Toshkent qo'g'irchoqlar fabrikasiga, qo'g'irchoq teatriga, hayvonot bog'iga, badiiy ko'rgazmalar zaliga qilgan sayohatlarim ijod qilishimda juda qo'l keldi.

Studiyada uch soatdan ortiqroq vaqt o'tkazgan bo'lsakda, u yerni sira tark etgimiz kelmadi. Oktyabr oyida keramik asarlar ko'rgazmasini o'tkazishga qizg'in hozirlik ko'rayotgan bolajonlarga ijodiy yutuqlar tilab, ular bilan xayrashdik.

Sherali SOKIN.

BOBURXONLIK

muhabbat bilan tasvirlaydi. Hamma narsaga e'tibor qiladi, tadqiq etadi va shunday shoirona ta'rif beradiki, bu shoh Bobur va shoir Bobur vujudida tabiatsevar yana bir Bobur yashayotganligidan dalolatdir. Va undagi bu sevgi gohida shohlikdan ham, shoirlikdan ham ustun kelishini, ayni paytda uni shohlikka va shoirlikka undayotgan kuch ham aslida ona tabiatga beqiyos mehr hosilasi ekanligini his etamiz.

Bunday payt u shohlikni va shoirlikni unutib, tabiatning oddiygina begunoh, uning mehribon farzandiga aylanadi. Oyoqyalang yurgisi keladi. Ona yer taftini, maysalarning mayin nafasini, toshlarning hatto oyoqlarga berayotgan ozorini ham onaga talpingan go'dakdek qo'msaydi.

Ne'mat ARSLON.

ONA YER TAFTI

mustahkam bo'lib ketgandiki, bunday oyoq uchun tog'u tosh pisand emasdi.


Zero, bu haqda Boburning o'zi shunday deydi: "Daxkatda ekanda Daxkatning gird va navoxisidagi tog'larni hamisha yayov yurib sayr qilar edim. Yalangoyoq ko'p yurgandan oyoqlarim andok bo'lub edikim, tog' va

tosh tafavvut qilmas edi".

Oyoqyalang yurishdan Boburning maqsadi nima edi? Sarsonu sargardonlikda yurgan shoh o'zini bundan-da qiyin kunlarga tayyorlamoqchi edimi? Albatta Boburning bunday maqsadi bo'limgan deyolmaymiz, lekin asosiysi, uning shoirona tabiatni

sevishidir.

"Boburnoma"ni varaqlarkanmiz, unda tabiat tasviriga, tabiat mushohadasiga juda keng o'rinn berilganligini ko'ramiz. Qaysi mintaqaga qadam qo'ymasin, Bobur o'sha joyning manzarasini, obu havosini, suvini, tog'u toshini katta



Muhtaram o'quvchilar! O'zbekiston madaniyatida yana bir muhim yangilik, ya'ni 12 jildli "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"ning 2 - jildi nashrdan chiqdi va o'quvchilarga taqdim etildi.

Buyuk maqsadlar sari dadil qadam tashlayotgan O'zbekiston xalqi ma'naviyatni yuksaltirishga ham alohida e'tibor qaratayotgani quvonchli holdir. Bosh maqsadi xalqning azaliy ezgu intilishlari, buniyodkorlik faoliyatining ma'no-mazmunini belgilaydigan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish bo'lgan yurt odamlari kelajak avlodga nimadir qoldirmog'i ham qarz, ham farzdir.

"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti xodimlari ham bu

borada katta i sh l a r n i amalga oshirmoqdalar Muxbirimiz "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Madaniyat va san'at tahriri yati mudiri Mohina ASHIROVA bilan shu haqda suhbatlashdi. Hozir shu suhbatni e'tiboringizga havola etamiz ..

- Hurmatli Mohina opa, tinglovchilarimiz aynan shu kitobning birinchi jildi chop etilganda siz bilan suhbat qilganimni eslashsa kerak. Qomus kitoblari yaratish ko'p mehnat talab qiladi. Buning uchun jamoangiz a'zolari faol mehnat qilishayapti, deb o'yaymiz.

- Albatta. Nashriyotimiz xodimlari shu kunlarda 12 jildli ensiklopediyadan tashqari "Respublika O'zbekiston" (rus

YANA BIR YANGILIK



tilida), Ziyovuddin ibn eshon Boboxon: Samarqand ulamolari xotirasiga doir "Al-qand fiyuzki ulamon Samarqand", "Buyuk ipak yo'li" (rus tilida) singari xalqimiz uchun zarur bo'lgan kitoblarni nashrdan chiqardi.

- Yangi chop etilgan qomus haqida batafsilroq ma'lumot bersangiz

"O'zbekiston milliy

ensiklopediya yasi" ning

2-jildi 4 mingga yaqin maqolani o'z ichiga olgan bo'lib, 119, 52 nashriyot tabog'ini tashkil etadi. Qadimdan o'zbek, tojik, turkman va boshqa sharq xalqlari orasida keng tarqalgan beshik haqidagi "Beshik" maqolasi bilan boshlanadi. Shuningdek, buyuk minyaturlachi musavvir, Sharq uyg'onish davrining buyuk san'atkori Kamoliddin Behzod haqidagi "Behzod" hamda "Bibixonim jome masjidi", "Bilaguzuk", "Biokimyo", "Biologiya", "Bishkek", "Bobil davlati", "Bobur", "Boburiylar davlati", "Bozor", "Boku", "Bolalar kinosi", "Bolalar musiqasi", "Bolalar teatri", "Botichelli", "Washington", "Bosh miya", "Bog' tuzish san'ati", "Venesuela",

"Venetsiya maktabi", "Vizantiya", "Virusli kasalliklar", "Vietnam", "Gabon", davlati, "Gayana davlati", "Gana" davlati, "Ganch o'ymakorligi", "Gvatemala", "Gegel", "Germaniya" kabi bir qator yirik maqolalarni o'z ichiga olgan. Turli xarita va illyustratsiyalar bilan maqolalar to'ldirilgan.

Kitobni tayyorlashda nashriyot jamoasidan tashqari Respublikamizning yetuk olimlaridan tuzilgan 22 ta Bosh tahriri hay'ati a'zolari, 158 ta ilmiy kengash a'zolari, 443 ta muallif qatnashdi.

Abduhamid
AbduG'afforov
suhbatlashdi

QALB SHIFOKORI

bordi. Hali - hanuz har oylik maoshidan o'zi hamda o'g'illari uchun yangi kitob xarid qidishni kanda qilmaydigan bo'ldi.

- O'zimni buyuk inson deb hisoblamayman. Lekin biron bir ibratlari fazilatim bo'lsa, buning uchun avvalambor ota-onamdan, qolaversa, eng yaqin do'stim, sirdoshim, maslahatgo'yim bo'lmish kitobdan behad minnatdorman, - deydi Zamira opa mayin jilmayib. - Lekin kitobni shunchaki o'qish emas, uqqanlarini boshqalarga ham o'rgatish lozim deb o'yayman. Buyuk Navoiy bobomiz:

Hunarni asrabon netgumdir oxir,

Olib tuproqqamu ketgumdir oxir, - deb yozganlarda nechog'li haq bo'lganlar. Zero, hadislarida ham "Sen o'qiding, biling, demak olimsan. Bilganlarin boshqalarga ham o'rgatishing farz" deyiladi. Bu gaplar mening hayot qonunimga aylangan desam, mubolag'a bo'lmaydi. Kutubxonam ko'rki bo'lmish mashhur tabib Ibn Sinoning 8 tomlik "Tib qonunlari" asari asosida betob bo'lib qolgan yaqinlarimni, tanishlarimni davolashga harakat qilaman va shu yo'1 bilan otamning armonlarini ro'yobga chiqarishga intilaman...

QALB SHIFOKORI

Urush qatnashchisi bo'lmish Karim aka Mahkamov qizlarini ko'z kasalliklari shifokori bo'lib, oppoq xalat kiyib yurishini orzulardi. Afsuski, tibbiyot oliygohida o'qish Zamira opaga nasib qilmadi. Kitobga havasi ustun chiqib, hozirgi O'zbekiston

Milliy Universitetining jurnalistika fakultetiga esa osongina o'qishga kirib oldi.

- Shifokor bo'lib, insonlar dardiga malham bo'lolmasamda, mohir so'z ustasi bo'lib, odamlar ko'ngliga yo'1 topa bilsam, dedim...

Chindan ham ko'p yillik ish faoliyati davomida Zamira To'laganova odamlar dardiga sherik bo'lib, ular qalbining shifokori bo'loldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ko'p yillar respublika gazetalarida samarali mehnat qilgan jurnalist Zangiota tumanidagi 8- muktabda ham ishlab, o'qituvchining hayoti, tashvishu muammolariga oshno tutindi. Maktabdagagi jo'shqin hayot tajribalari keyinchalik "Turkiston", pedagogik matbuot - "Ma'rifat" gazetasida ishlash jarayonida juda qo'1 keldi. Uzoq yillar davomida xatlar va shikoyat bo'limi mudiri vazifasida ishlab, nohaqlika uchragan insonlarga yordam qo'lini cho'zib keldi. Xat - bu hayot ko'zgusi, har bir xat ortida muayyan bir inson, uning taqdidi turishini dildan his qilib, har bir shikoyat izidan olis xizmat safarlariga otlanardi. Ish tajribalaridan kelib chiqib, muktab

muammolariga dadil kirib bora olardi u. So'ngra haqiqatni qaror toptirgan opaning nomiga juda ko'plab minnatdorchilik muktublari kelardi...

QATRAMAN KENG UMMONMAN

Yoshlar gazetasi mening ijodiy kamolga yetishimga turki bo'lgan bo'lsa, "Ma'rifat" da jurnalist sifatida shakllandim, deya xotirlaydi opa. - Jabbor Razzoqov, Safar Ostonov, Erkin Malikovlarni mehribon ustozlarim deb atasam, Mirzakarim Pirmatovni "pirim" deb hisoblardim. Ular ko'magida bilim va mahoratimni oshira bordim. Har kuni erta tongda xonama-xona kirib har bir xodimining sihat-salomatligini, oilasining tinchligini so'rab surishtiradigan bosh muharririmiz Rustam aka Shog'ulomovdan insoniylikni, onam haqida ocherk yozib, ish joyimga keltirib bergan Rahima opa Shomansurovadan kasb fazilatlarini o'rgandim. Yangi yozgan maqolam chiqdimi, darhol qahramonimga bu haqdagi xushxabarni yetkazishga oshiqishim ham shundan. M.Gorkiying "Iste'dodning 99 foizi mehnat" degan fikriga men ham qo'shilaman. Inson izlansa, intilsa, o'z qobiliyatini

sayqallab borsa, kam bo'lmas ekan. Uzoq yillik xizmatlarim munosib taqdirlanib, "Xalq maorifi a'lochisi" nishoni bilan taqdirlandim. Bu fikrlarimni o'zlariga meni ustoz deb biladigan Moskvada mas'ul vazifada ishlaydigan Otabek Bobojonovga, "Ishonch" gazetasida mehnat qiladigan Muhabbat O'rmonbekovaga, O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetiga o'qishga kirgan Kamola Afzalovaga, yana ko'plab ijodkor ukalarim va singillarimga takror va takror aytishdan charchamayman...

Zamira opa To'laganova ajoyib inson, kamtarinu kamsuqum ijodkor. Mening fikrimga ko'pchilik qalam ahlining ham qo'shilishlariga aminman. U kishi hozir "Sog'lom avlod" gazetasida mas'ul kotib lavozimida hormay - tolmay ishlab kelyaptilar. Ammo bolalar gazetasini ham na'zardan qoldirmaydilar. Har bir maqolaning shakl-mazmuniga e'tibor berib, o'ziga xos jonkuyarimizga aylanganlar. Sizni shu xislat tark etmasin, Zamira opa! «Tong yulduzi»ning bolajonlari ham sizga uzoq umr, xotirjamlik tilar ekan, bizga ham tez-tez yozib turing, - deydi.

Maktabga bormasimdan avval kirl alifbosini yoddan bilardim. Kitoblarni juda yaxshi ko'rganim uchun bayramlarda, tug'ilgan kunlarimda dadam ham oyim ham faqat kitob sovg'a qilishardi. Ulardagi ertaklarni, tarixiy hikoyalarni, she'rlarni maroq bilan o'qib c h i q a r d i m .



Tushunmagan joylarimni dadam tushuntirib berardilar.

Kitob o'qib charchasam, rasm chizishga o'tirardim.

- Mustaqilligimizning o'n yilligiga bag'ishlangan "Men uchishni istayman" to'plamingizdag'i she'rlaringizda Vatan, istiqlol mavzulariga ham keng o'rinn beribsiz. Buning boisi nimada?

- Men mustaqillik tengdoshiman. Tengdoshim haqida yozgim kelaveradi.

- Sizningcha she'r yozish qiyinmi?

- Bilmadim. Oson shekilli. Faqat har doim ham yoza olmayman. Birinchi yozgan she'rim ismlarga

"МЕН УЧИШНИ ИСТАЙМАН"

Tengdoshingiz Nargis Jumayeva 1991 yilda tug'ilgan. Olti yoshidan maktabga borgan. Hozirda Toshkent shahar, Sirg'ali tumanidagi 322-maktabning 5-sinfida a'lboholarga o'qiyapti. Adabiyotga, inglez tiliga qiziqadi. She'riy mashqlari, maqolalari "Xalq so'zi", "Turkiston", "Adolat", "Tong yulduzi" gazetalarida chop etilgan. Yaqinda Nargisning hayotida quvonchli voqe'a ro'y berdi. "Men uchishni istayman" nomli she'riy to'plami bosmadan chiqdi. Quyida Nargis bilan bo'lgan suhbatimizni e'tiboringizga havola qilyapmiz.

bag'ishlangan edi.

- She'ringizning birinchi tinglovchisi kim bo'lgan?

- Albatta ota-onam. Ular mening yozgan she'rlarimga befarq emaslar. Yangi she'rimni yozgan kunim singlim Ra'no ham "o'qib bering" deb xarxasha qiladi va tezda yodlab oladi.

Yana xolam, tog'aamlar ham shoir. Ularning kitoblarini o'qib, ko'p narsalarni o'rganaman.

- Maktabingiz haqida ham gapirib bering.



Hansuv

- Maktabimizni qancha maqtasam, shuncha oz. Sinf sardoriman, Sinfoshlarim ham juda yaxshi bolalar, bir-birimiz bilan juda inoqmiz. Ustozimiz Noila opani hammamiz yaxshi ko'ramiz.

- Kelajakda kim bo'lmoqchisiz?

- Kelajakda kim bo'lishimni hali o'zim ham bilmayman. Ammo shuni yaxshi bilamanki, qaysi kasbning egasi bo'lmay, mustaqil Vatanimning yanada gullab-yashnashi yo'lida bor kuchimni sarflayman.

- Rahmat. Niyatingiz hamrohingiz bo'lsin, kitoblarining soni yanada ko'paysin.

A. ABDULLAJONOV yozib oldi.

GUL VA ZARPECHAK

- Odamlar nega meni yayrab o'sishimga, sizlarni bo'g'ishimga yo'l qo'ymay yulib o'tga yoqishadi, - debdi zarpechak gulga.

- Dunyoda yaxshilik bilan yomonlik har doim olishib yashaydi, - deb javob beribdi gul.

- Odamlarning bag'ri keng, go'zallikni asrash uchun, yomonlikni qo'llari bilan yulib tashlashadi.

QAYTAR DUNYO

- Nega Orol quriyapti? - deya odamlar bir-biridan so'rashdi.

- Qaytar dunyo deydilar.

Vaqtida qadrimga yetmadinglar, - Orol shunday deya oh urdi.

Ohidan oppoq tutun chiqib, zamanni oppoq tuz qopladi.

GUL VA KAPALAK

Bir kuni gul kapalakdan so'rabi?

- Nega har kuni menga parvona bo'lasan?

- Ey, gul, - debdi kapalak. - Sen go'zalsan! Nafaqat odamlar, dunyodagi barcha jonzotlar go'zallik shaydosi. Go'zallikda sehr bor. Bu sehr yaxshilikni ham yomonlikni ham bag'riga chorlab, ezbilikka yetaklaydi.

Men Sunbulani Sunbula suviga o'xshataman. U ikki qo'llini ko'ksiga qo'yib, "Assalomu alaykum" desa butun dunyoingiz yorishib ketadi.

Men shoirman istasangiz shu,
O'zimni erur shu sozim.
O'zgalaridan olmadim tuy'u,
Birovga ham bermam ovozim.

Ha, Sunbula o'z ovozi, o'z sozi bilan ijod maydoniga kirib kelayotgan umidli va iste'dodli yoshlardan biridir. Sunbula nozir 13 yoshda. Bundan 12 yil ilgari uning onasi - Muhtarami umid' bilan bir yostiqqa bosh qo'yan tur mush o'rtog'i - Samandar Qarshi tumanidagi Lag'mon qishlog'idan Gilamchi qishlog'iga keltirib qo'ygandi. O'shanda Sunbula 9 oylik murg'ak go'dak edi. Oradan ko'p o'tmay onasi olamdan o'tdi... U sakiz yoshigacha Abdulla Oripovning ona haqidagi va boshqa she'rlarini yod oldi. To'qqiz yoshidan she'rlar yoza boshladi. O'n bir yoshlarida she'rlari tuman, viloyat ro'znomalarida chop etila boshladi.

1998 yil 15 yanvarda tuman ijodkor o'quvchilar ko'rik-tanlovida g'olib bo'ldi. U she'rlarida samimiylikni, ona-Vatanga muhabbatni, yaxshilikni, ona sog'inchini kuylaydi. "Yaxshilar" degan she'rida:

...Agar yolg'on kulta dunyoda,
Biz bolalar tomon bo'linglar.

deya kattalarga murojaat qiladi,

Sunbulaning satrлari she'rdan badiiylik libosini kiymoqda. Qolaversa, u ijodda ijodkorning hech kim aytmasen o'z gap bo'lishini, o'z uslubi bo'lishini tushunib yetayapti. Kecha barmoq vaznida she'r yozayotgan Sunbula bugun Navoiy ijod etgan aruz vazni xayolini o'g'irlab, qalbida tug'yon ko'tarayapti.

Sunbulaning she'rlarida dard bor. Mashrab "Dilda darding bo'limasa, sar daftaram kavlama" deganlaridek, Sunbulaning she'rlaridagi "dard" uning nazm osmonida yana bir yorqin yulduz bo'lib porlashidan darak beradi.

Diloram AZIZOVA,
Tuman xotin-qizlar qo'mitasi raisi, hokim o'rinnbosari.
Quyida Sunbulaning qatrалari e'tiboringizga havola etilmoqda.

KO'ZLAR

Borliqni ko'radigan, tabiatning go'zalligidan hayratga tushadigan, insonlarning samimiyligini chehrasidan cheksiz quvonadigan tabiiy ko'zdan tashqari aql ko'zi, qalb ko'zi ham bor.



QATRALAR

BAHOR VA DO'L

Bahor do'liga dedi: - Men kelganimda borliq yashnab, ko'ngillar quvonchga to'ladi. Bog'lar, tog'lar intizor kutadi. Odamlar tashrifimidan quvonib bayramlar qiladi. Lekin tundagi yamoq singari bir kelasanu hammaning kayfiyatini bo'lishga harakat qilasan.

Do'l: - Ey, shunga ham aqling yetmadimi? Seni ardoqlagan odamlar bir kam dunyo deyishgan-ku.

YER VA QUYOSH

Yer Quyoshga dedi: - Men Seni har tong intiq kutaman. Sochlarmi, ya'ni maysalarimni nurlaring bilan silab, borligimga huzur bag'ishlaysan. Bu halovatdan quvonib, bag'rimdag'i odamlar va jonzotlarni quchib, har doim senga talpinib yashayman.

Quyosh: - Borliging uchun tashakkur! Bag'ringdag'i yaxshilik va ezbilikni ko'rish uchun har tong sen tomonga shoshilaman. O'rtamizdag'i sir-asror atalgan odamlaru jonzotlar omon bo'lishsin. Ular boshida har doim parvona bo'laylik. Do'stligimiz abadiy bo'lsin. Zero, yorug' dunyoni do'stlik asrab qoladi.

GOLIVUDDA SOXTA DOLLARLAR

Los-Anjeles shahrida yashovchi odamlar Golivudga o'z noroziligini bildirishmoqda. 2001 yilning o'zida bu kabi norozigarchilik ikkinchi marotaba bo'ldi. Ma'lumotlardan bilamizki, Gollivudda ishlanadigan filmlarning yaratilishiga katta miqdorda pullar sarf etiladi. Navbatdagi noroziliklarni ham aynan pullar keltirib chiqarmoqda. Film yaratilishiga ketgan millionlab dollarlar ko'chada sochilib yotgan soxta dollarga sababchi bo'limoqda.


Gollivudda ishlanayogan filmlarning birida ko'chada suratga olinayotgan vaqtida bir chemodan to'la dollar sochilib ketishi oqibatida atrofdagi odamlar ko'chada ko'zni o'ynatib yotgan dollarni terib olishgan.

Filmdagi dollarlar shunday ishlanganki, uning soxtiligini bir qarashda bilish qiyin. Shu sababdan ham odamlar topib olgan dollarlarni ham yonidagi pullariga qo'shib qo'yanliklari ularga qimmatga tushmoqda. Soxta dollar egalari narsalar xarid qilib olish uchun ularni bilib-bilmagan holda to'lashlari natijasida soxtiligini bilib qolgan sotuvchilar tezda politsiyaga xabar qilib, soxta dollar egalarini xibsga olmoqdalar. So'nggi paytlarda shaharning turli burchaklaridan hibsga olinganlarning ayblari bir xil bo'lib chiqmoqda, ular soxta dollarlarni ishlatgani uchun ayblanishmoqda.

Odamlar bu aybnomadan norozi kayfiyatda Golivudga o'z e'tirozlarini bildirishmoqda.

Ayblanganlarning aytishicha dollarlar ishtirotkida sahna

Bir shingil bog'dan, bir shingil tog'dan



ko'rinishlarini ko'chada emas, maxsus yopiq joylarda suratga olishsin yoki umuman soxta dollarlarni ishlatishmasin deb ta'kidlashmoqda.

KOBRA QAFASDA

Janubiy Korolinada yashovchi rassom Teddi Terens hayvonlarning rasmini chizishni yaxshi ko'rganligi bois, uyida

parvarishlayotgan jonivorlarning barchasini rasmini chizib o'tirib, xayoliga bir fikr keladi. Teddi o'zi parvarishlayotgan Osiyo zaharli kobranging rasmini chizishga ahd qiladi. Ammo Teddining zaharli kobra tasvirini qog'ozga tushurishga bo'lgan harakati muvaffaqiyatsizlik bilan boshlandi.

Teddi Osiyo zaharli kobra tasvirini chizayotib bir necha bor o'zi xohlagandek turishini talab qilib, kobranging jig'iga tegib qo'yanini sezmay ham qoldi, natijada jazavasi qo'zigan kobra uni chaqib oladi. Teddi avvaliga zaharning kuchiga e'tibor bermay, o'z ishini davom ettiradi, oqibatda ko'zini ochib qarasa Grinvil shifoxonasida yotgan emish. Tezlik bilan ko'rsatilgan tibbiy yordam

Teddini hayotini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi.

Teddining do'stlari Osiyo zaharli kobrassing adabini berib, qo'yishmoqchi bo'iganlarida jonivorga rahmi kelgan. Teddi do'stlariga kobrani tinch qo'yishlarini iltimos qilib, uni yaxshi ko'rishini aytdi. Do'stlari Teddining so'zlariga rozilik bildirib bir shart qo'yishdi. Endi Teddi o'zining zaharli kobrassing rasmini chizmoqchi bo'lsa, faqat qafasdagi kobra rasmini chizishga to'g'ri keladi. Teddi boshlab qo'ygan ijodini yakunlash maqsadida shifoxonada davolanmoqda.


JEYMS BOND FOSH ETILDI,

UMID DJEKI CHANDAN Gollandiyalik bir o'smir Jeyms Bond filmlarni qiziqib ko'rib borar ekanki, hatto o'zi ham Bond kabi qiyin vaziyatlardan chiqib ketishini, jouslik qilish, qimmatli sirli ma'lumotlarni topish, qo'liga tushmas agentlarga taqlid qilib, o'z avtomashinasi nomerini to'xtaganda ko'rindigan, yurganda ko'rindigan qilib olib politsiya xodimlarini anchater to'kshiga sababchi bo'ldi.

Ko'chada hatto tezlikda politsiya xodimlarining oldidan bir necha bor shamoldek o'tib ketib, bir necha bor ularning

ta'qibidan qutilib ketib, go'yoki o'zini sirli agentlardi his qilib, bu kabi qaltis hazillari bilan milliy politsiyachilarning jiddiy ravishda asabiyashishini ko'rib, o'z hissiyotlarini jilovlay bilmagan yigitcha bora-bora hazili zilga aylanganini sezmay ham qoldi.

Bu safar o'zini tutqich bermas Jeyms Bond hisoblovchi yigitcha politsiyachilarning jiddiy ta'qibidan chiqib keta olmadi. Uning bu galgi operatsiyasi amalga oshmay qoldi. Politsiya xodimlari uni shunday ta'qib qilishdiki, hatto u berkinishga iloj topa olmadi. Yo'l qoidasini bir necha bor buzganligi uchun uning mashinasini qamab qo'yishdi. Endi piyoda qolgan



Jeyms Bond taqlidchisi Djeki Chan filmlarini ko'ra boshlasa ajab emas. Chunki Chan ishtirotidagi filmlar ham Bond kabi qiziqarli bo'lib, barcha operatsiyalar piyoda ijro etiladi.

ENG BALAND BINO IZLAB

Ko'pgina odamlar o'zi yaxshi ko'rgan turli-tuman mashg'ulotlar bilan shug'ullanadi. Kimlardir tarixiy qo'lyozmalar to'plash bilan, yana kimlardir esa futbol yulduzlarining rasmini, avtomobilarning turli-tuman rusumlarini yig'ish bilan va boshqa har xil o'zi qiziqqan ishlar bilan mashg'ul bo'ladi. Bu kabi va boshqa mashg'ulotlarni ular "xobbi" deb atashadi. Shunday xobbillar ham borki o'zi qolib boshqalarining ham diqqatini o'ziga tortadi.

Fransiyalik 29 yoshli Mishel parashutdan sakrashni adashidan o'rganib olganligi bois doim yuqori baland joylardan sakrardi. U Fransiyaning baland ko'pri, binolaridan parashut bilan sakrab odamlarning qoyil degan so'zlariga o'rganib qolgan.

Mishel o'zini to'xtata olabilmaganligi bois katta jarima to'lab ozodlikka chiqib oldi.

Bir kuni Mishel odamlar ko'p bo'luvchi Parijning Eyfel minorasining 370 metr balandligida parashut bilan sakraganligi bois un politsiya xodimlari

hibsga oldi. Xobbi shunday narsa bo'lar ekanki, uni hech kim yarim yo'lda tashlab qo'ymas ekan. Endi Mishel AQSHning eng baland binosidan sakrash uchun AQSHga yo'l olganligi ma'lum bo'ldi.

Sharofiddin RISQULOV

Diqqat: buloq operatsiyasi

Suv - hayot. Suv - salomatlik. Donolar svjni "obi-hayot" deb bejiz aytishmagan. Chunki insoniyat tirikligini ta'minlovchi, uni to'ydiruvchi, kiyintiruvchi ham svu. Qadim-qadimlarda otabobolarimiz suv uchun kurash olib borganlar. Kanallar, ariqlar, quduqlar qazib suv chiqarganlar. Shuning uchun ham uning har bir tomchisini qadrlaganlar.

Bu yil


SUV-TIRIKLIK MANSABAI

operatsiyasi - da shaharlik maktab o'quvchilari ham ishtirot etishlari mumkin. Buning uchun ular shahar ariqlarini tozalashda ishtirot etishlari, buzuq suv kranlarini tuzatishda kattalarga yordamlashishlari, suyni ishlatishda avvalo o'zlar tejamkor bo'lishlari lozim. Mahallalarda, maktablarda, turar joylarda suv tejamkorligiga reydlar o'tkazishlari, svjni isrof qilgan shaxslarni aniqlashda faoliy ko'rsatishlari kerak. Bu xayrli ishga o'z hissangizni qo'shasiz, degan umiddaman.

Ali KO'CHIYEV

O'ZBEKİSTONDA YAPONİYA MADANIYATI

VA SANATI KUNLARI



Bolalar, Yaponiya deganda ko'z oldingizga nimalar keladi? Rangli televizorlar, magnitafonlar, bejirim va sifatli kompyuterlar, turli elektron buyum va uskunalarini tasavvur qilsangiz kerak-a. Chunki Yaponiya elektro-tehnika sohasidagi yutuqlari bilan allaqachon jahonda o'zining yuksak va nufuzli o'mini egallaganidan xabaringiz bor. Boy madaniyati va rivojlangan iqtisod Yaponiyani quadratli va boy davlatga aylantirdi.

Respublikamiz Mustaqilligini Yaponiya birinchilardan bo'lib tan oldi. Mamlakatimizda o'z elchixonasini olib, mamlakatlarimiz orasida har tomonlamo hamkorlik o'rnatildi. Ana shu hamkorlik rejasiga asosan O'zbekistonda Yaponiya madaniyati va san'ati kunlari keng ko'lamda



o'tkazilayotganidan ham xabaringiz bor. Tadbirlar asosan Toshkent va Samarqand shaharlarida o'tkazilayapti. O'zbekiston Badiiy Akademiyasining Markaziy Ko'rgazmalar zalida zamonaliviy yapon kulol ustalari tomonidan yaratilgan turli idishlar, buyumlar, Yapon xalqi kundalik turmush tarzini aks ettiruvchi fotosuratlar ko'rgazmasi 23 sentyabrgacha davom etadi.

Respublika kinochilar uyida va Samarqand shahrining "Samarqand" kinoteatrida yapon kinochilari tomonidan yaratilgan eng sara filmlar namoyishi bo'ldi. Poytaxtimizdag M.Gorkiy nomli rus drama teatrida esa 21 sentyabr kuni

Okinava oroli ijodkorlari ijrosidagi milliy raqslar hamda 26 sentyabr kuni "Syamisen" musiqali ansamblining konserti namoyish etiladi. "O'zbek - Yapon" Markazida "O'zbekiston kelajakda" va "Yaponiya" mening tasavvurimda deb nomlangan bolalar suratlari ko'rgazmasi namoyish etiladi. Xohlovchilar har haftada bir marta o'qiladigan ma'ruzalarni tinglashlari, Yaponianing o'tmishi, buguni va kelajakdag'i rejalar haqida ma'lumotlar olishlari mumkin. Shuningdek, Markazda yapon milliy taomlari va shirinliklarini tayyorlash haqida ham maslahatlar beriladi.

Yapon xalqi, madaniyati, turmush tarzi bilan tanishishni istasangiz, bepul tashkil qilinayotgan tadbirlarda ishtirot etishga shoshiling.

Temur RO'ZIMATOV



(Davomi: Boshi o'tgan sonlarda).

Bir payt qulog'imga alla qanday shovqin, baqiriq-chaqiriqlar eshitilganday, ular nihoyatda olis, yer qa'ridan kelayotganday bo'ldi.

Bundoq o'zimga kelib qarasam, ikki tirsagim qip-qizil qon, yenglarim titilib ketgan. Qo'lqop ham yo'q. Alpinistlarning qabariqli qora ko'zoynagi rezina boylagichi bilan dahanim ostida osilib turibdi. Sovuqdan qotib qolgan qo'llarim jonsizday, qimirlatib bo'lmashdi. Lekin oyoqlarimda qandaydir sezgi alomatlari bor... Oynatog' belida o'sib yotgan butaga o'xshab ko'ringan o'simlik ikki shohdan iborat archa daraxti ekan. O'sha joniimga oro kirgandi.

Tepadan hech kimning qorasi ko'rinas, faqat bezovta qandaydir tovushlar yashitilib qolar, pastdan Solih bilan Nu'mon kaftlarini "karnay" qilib, nimalardir deyishardi.

Qo'limga sal jon oralaganday bo'ldi. Nazarimda oyoqlarim ham joyida. Biroq, qimirlashdan qo'rqaman: joni qil uchida turganu, sal qaltsi harakat qilsam, archaning shohlari shart uzilib, jahannam qa'riga koptokday uchib ketishim muqarrarligini sezib turgandayman.

Miyamdag'i karaxtlik tarqalib, asta-sekin o'ylay boshladim: arqon qo'limda turibdi, demak u uzilmagan. Faqat yax tortib, u silliq bo'lib qolgani uchun qo'llarim ushlab qololmagan. Archa menga balogardon bo'lgan.

Endi ming harakat qilib bo'lsa ham cho'qqiga ko'tarilish befoyda. Pastlik esa terak bo'yi keladigan sip-silliq, yaltiroq tubsizlik. Yana undanda etakroqda qorayib palaxsa qirralari ko'zga tashlanayotgan xarsang toshlar... O'rtada omonat ikki shoh orasida "ilinib" men turibman. Biron najotdan nishona yo'q... Quyosh ham qibladagi tog' o'rkachlari tomon bo'zarib bota boshlagani sayin izg'irin avjga chiqmoqda. Yuzlarimni xuddi ayoz payti suv betini o'ray boshlagan yupqa muz

misol "igna"lar qoplayotganday bo'ldi. Endi faqat bir tomordan-pastdan Solih bilan Ne'matning elas-elas ovozlar eshitilib qolar, ular tartibsiz sochilib yotgan ulkan xarsanglar ustiga chiqib olib, nimalardir deyishardi.

Bunday beilojlik holatiga tushib qolishni hech kimning boshiga solmasin. Miyamga taxminan shu turishda yarim soatchaga chidaymanu, undan uyog'iga tarashaday qotaman degan fikr urildi.

Bir mahal tepadan arqon bo'ylab nimadir sirl'alib tushib kela boshladi va karaxtlik qoplagan yuzu bo'yinlarim issiqlik taftini sezdi. Ko'zimni bazo'r ochdim: Muhammadjonning qalin paxtali sarg'ish pufaykasi boshim aralash yarim gavdamni o'rab turardi.

Lekin bunday kiyimga o'ralib yana qancha chidash mumkin! Shom tushib bormoqda, hali zamон hammayoqni zulmat o'z bag'riga oladi. Bu "tutqunlik" dan qutulishning aslo iloji bo'lmasa kerak... Shunday tushkunli o'ylar tinimsiz xayolim-

d a
charx urardi.

Pastda yana balandroq bo'lib lovullab yona boshlagan gulxan shu'lasi ko'zga chalindi. Kimdir olib, kelingan shox-shabbaning so'nggi bo'laklarini olov ustiga tashladi, nazarimda. Ajablanadigan joyi shunda ediki, uzoqda yonayotgan olov tafti xuddi mening yonimda-yu, u vujudimga urilib, jon ato qilayotganday tuyuldi, zirqirab og'rib turgan badanlarim barcha azob-uqubatlardan qutulgan misol yengil tortdi. G'alati bir sarxushlik o'z og'ushiga oldi. Mudroq bosib, oppoq parqu bulutlar orasida qushday harakat qilib, uchib yurganmishman...

Yarim kechada Tursunboy akaning o'tovi ichida o'zimga keldim.

- E, yashang, alpinistik ham evi bilan-da! - dedi u kishi chiroq piligini

ko'tarib, ko'zlarimni ochganimdan xursand bo'lganday...

Aytishlaricha o'zlar bilan o'zlar ovora bo'lgan yigitlar Bo'ribosarning qayoqqadir ketganini sezmay qolishgan.

Iting bezovta holatda qo'nalg'aga kelgani, g'ingshib yer tatalaganidan qandaydir noxushlikni angagan Tursunboy aka otiga qamchi bosib, Oynatog'ga yetib keladi. Doim egar qoshiga tashlab qo'yadigan arqon o'rami as qotadi: Tursunboy aka unga osilib mening yonimga tushadi, bir amallab belimdan mahkam bog'laydi. Bolalar ko'pchilik bo'lib meni tepaga tortib chiqarishadi.

Ertasiga qozon quyasi bosib, ro'mol bilan tang'ib tashlangan qo'llarimga jon oralaganday bo'ldi.

-Yaxshi ham sovuq urib ulgurmabdi. Yo'qsa oynatog' safari Sizga ancha qimmatga tushishi mumkin edi, deb qo'ysi Tursunboy aka xotini ichkari-

ga ko'tarib kirib kelgan qaynoq sut to'la yog'och kosani oldimga qo'yarkan.

Kun peshindan oqqanda Oynatog' tomordan vertolyotning varillagan ovozi eshitildi. Birozdan so'ng qarshidagi yonbag'irlik ustida paydo bo'ldi. Yigitlarning qiy-chuvi hammayoqni bosib ketdi.

Belgilangan kunda qaytmay, bedarak ketganligimizdan xavotirga tushgan Yosh o'lkashunoslar markazi qidiruv e'lon qilgan ekan. Vertolyotga o'tirib esomon rayon markazi G'azalkentga yetib keldik.

... Oradan bir necha kut o'tgach, Oynatog' cho'qqisi Toshkentdag'i 144-maktab o'quvchilari tomonidan zapt etilib, u yerga bayroq tikilganligi haqida radio xabar tarqatdi. Televide niye orqali

yarim soatli ko'rsatuv namoyish etildi. Hamma o'z boshidan kechirgan besh kunlik voqealarni, sarguzashtli qiyinchiliklarni biroz bo'rttirib hikoya qilib berdi. Muhammadjon tushirgan suratlar jonli guvoh tariqasida ko'pchilikni hayron qoldirdi.

Maorif vazirligidan kimdir bu ko'rsatuvni tomosha qilgan ekan, katta bir yig'ilishda mana, o'zimizdan maqtasa arzigiday yosh alpinistlar yetishib chiqayapti, balli, ularga, debdi.


Shundan keyin obro'yimiz yana ko'tarilib ketdi. Direktorimiz o'z xonasiga chaqirdi. U yerdan rayon maorifining boshlig'i O'tkir aka degan kishi o'tirgan ekan. Hammamizni tabrikadi, qandaydir "Faxriy yorliq" bilan mukofotlashlarini aytdi.

Bo'rixa Alimovich yayrab ketib:

- Klubni ochdirib beraman. Ansambl faoliyatini qayta tiklanglar. Lekin miltiq otish bo'lmashligi kerak, - dedilar.

Afsus, ansambl tiklanmad - do'stim Omonjon chet elga ishga ketdi, meni esa obro'li jurnal tahririyatiga chaqirib qolishdi.

(Tamom)



«O'TKAN KUNLAR» NI O'QIB

Sog'inchni yurakning qa'riga ko'mib, Zaynabning xayolchan ko'ziga cho'mib. To'kilgan yoshlarim ro'molcham yuvib, Men sizdan ketyapman, Xayr,Azizim!

Meni ovutmoqchi ertaklar yolg'on, Muhabbati xazon imkonlar yolg'on. G'animga ham ko'rmay bunchalar hijron, Men sizdan ketyapman,

Xayr,Azizim!
Ko'changiz oldidan o'tmasman atay, Visol sog'inchida qiyalsam netay, Men endi yo'qotish azobin yutay, Men sizdan ketyapman, Xayr,Azizim!

So'nggi bor qayrilib qarang, azizim, -"Siz o'shami?"deya so'rang, azizim, Ko'zimdag'i yoshni ko'rmanq, azizim, Men sizdan ketyapman,

Xayr,Azizim!

Fasllar aylanib bahor kelganda, Olam ishq fasilda hurram kulganda, Siz "O'tkan kunlar"ni qo'iga olganda, Meni esga oling, Yodlang,Azizim...



ADOLAT G'AYRAT qizi.

Ochil dasturxon



"MEVALI" TORT


Masalliq: 6 ta tuxum, 1 st. shakar, 250 gr. margarin, soda va uksus, xamir bo'lguncha un, 1 kg. olma djem ishlatsila ham bo'ldi.

Tayyorlanishi: Tuxumni tog'orachaga chaqib, shakar ham solib aralashtiriladi. Margarinni tavada eritib, tog'orachadagi masalliq ustiga solib, soda va uksus bilan yaxshilab aralashtiriladi. Ular ustidan yumshoq (qo'liga yopishadigan) qilib xamir qoriladi. Xamirni ikki bo'lakka bo'lib, 10 daqiqalarga tindirib qo'yiladi.

Gaz patnisini yog'lab, xamirni bir bo'lagini yoyamiz. Ustidan olma yoki turli murabbo yoki djem surib chiqiladi.

Xamirni ikkinchi bo'lagini ustidan yoyib, ustiga shakar sepib, gazga o'rta olovga qo'yamiz.

Ushbu tortimizni ertalabki nonushtalarda yesak, judayam mazza bo'ldi.



"PENTUZA" SALATI

Masalliq: 1 bog'lam pentuza, 5-6 dona pomidor, 5-6 dona bodring, 4-5 dona qizil sabzi, 3-4 dona sarimsoq piyoz, salat yog'i, 500 gr. go'sht.

Tayyorlanishi: Go'shtni maydalab to'g'rab tavada piyoz bilan qovuramiz, ustiga to'g'ralgan sabzi, pomidor va tuz solib qovuramiz.

Kattaroq tog'oraga suvda pishirib olingen pentuzani solib, ustidan pomidor, bodring, sarimsoq piyoz to'g'rab aralashtiramiz. Qovurilgan go'shtni ham tog'oraga solamiz. Hammasini aralashtirib, tuzi ko'rilib, ko'katlar mayda qilib to'g'rab solinadi.

Oxirida 2-3 qoshiq salat yog'idan solinsa maza kiritadi.

Yana sizga shuni aytilib o'tmoqchi edimki, har qanday salat tayyorlaganimizda ayniqsa yoz kunlarida uni 2 soatdan ortiq ushlamasligimiz lozim. U soat o'tgan sayin o'z sifatini yo'qotadi.

Shahlo MUTALOVA tayyorladi.

Aziz bolajonlar, aytaylik badiiy kitob sotib olish uchun kitob do'koniga kirdingiz. Birinchi navbatda nimalarga e'tibor berasiz? Sarlavhasiga, kitob muallifining kimligiga, shundaymi? Bu juda yaxshi albatta. Lekin darsliklaringizning muallifi kimligi bilan ko'pchililingiz qiziqmasangiz ham kerak-a? Axir ularning ortida ozmuncha mehnat, olimu olimalarning tinimsiz izlanishlari yotadimi?!

Ana shunday zahmatkash insonlardan biri - pedagogika fanlari doktori, professor Qumri opa Abdullayevani "Istiqlol umidlari" to'garagimizing bugungi mashg'ulotiga taklif qildik.

"Tong yulduzi" gazetasi Qumri opa uchun juda qadrdon ekan. Opa ilk bor yozgan she'riy mashqlarini, mitti maqolalarini tahririyatga olib kelganlarida, maqolangiz biroz bo'shroq, she'ringizda fikr sayoz, deya qabul qilishmagan ekan. Qumri opa o'rinni tanqididan to'g'ri xulosa chiqarib, ularni qayta - qayta tahrir qilishdan charchamabdilar. Shu tarixa

...Zangiota tumaniga qarashli Alimbuva qishlog'iда, o'qituvchilar oilasida tavallud topgan Qumri opaning bolalik damlari suronli urush yillariga to'g'ri keldi. Maktabda o'qituvchilar yetishmasligi bois 16 yoshli chog'laridanoq o'quvchilarga saboq bera boshladilar. Taqchillik yillari emasmi, darsliklar yetishmasdi. Shunda Qumri o p a :

"qo'limdan kelsa-yu qani endi men ham darsliklar yozsam" deya niyat qilgan ekanlar. Pedagogika fanlari ilmiytad q i q o t oliy gohini tamomlab, shu dargohda aspirant, kichik ilmiy xodim, katta ilmiy xodim bo'lib ishlay boshladilar. 1990 yilda Moskvada pedagogika fanlari doktori darajasini


yoqlab, olima bo'lib qaytdilar. O'smirlikda qilgan niyatlar xolis ekan, dastlab Oqilxon Sharofiddinov bilan birgalikda "Alifbe" kitobini, so'ngra "O'qish kitobi", "Ona-tili" kabi bir qator darsliklar, boshlang'ich sinflar uchun ko'plab metodik qo'llanmalar yozdilar. Kuni-kecha 2-sinf o'quvchilari uchun yozgan "Odobnama" darsligi bosmadan chiqdi.

Qumri opa birinchi bo'lib boshlang'ich ta'lim Konsepsiyasini yaratdilar, boshlang'ich ta'lim Davlat standartini ishlab chiqishda ijodiy guruhga rahbarlik

qildilar.

- Men juda baxtli, baxtiyor ayolman, - deya javob berdilar Qumri opa bolalarning, farzandlaringiz, nabiralaringiz haqida ham gapirib bering, degan savollariga javoban. Farzandlari qobil, ilmli, hunarli, nabiralari bilag'on, tirishqoq, izlanuvchan bo'lgan onaning, buvining javobi boshqacha bo'lishi ham mumkin aemasda. Katta qizlari Doimoxon Rahmonbekova taniqli musavvir, keyingi qizlari o'qituvchi, o'g'illari huquqshunos. Tasodifni qarangki, hozirgi

kunda san'at va



Baxti bekam ayolga havas bilan boqib, barcha onalar ko'zida sizdek g'ururni ko'raylik, dedik. Umringiz o'zingiz yozgan kitoblarde uzoq bo'lsin. Axir sizning mehnatlaringiz singgan «Alifbe»ni ota-onalarimiz o'qishgan. Endi esa «Odobnama»ni farzandlarimiz o'qishadi. Aytgandek nabiralari Malikaxonning shu kungacha yozgan ertaklari 40 tadan oshib ketibdi.

Mazmun va uslub jihatdan bir-birini takrorlamay-

digan ertaklaridan ayrimlarini sahifalarimizda siz ham o'qigansiz. Bugun esa e'tiboringizga uning yana bir ertagini havola qilyapmiz. Sahifamizni esa Doimo Rahmohbekova chizgan suratlar bezadi.

Feruza ABDUSAMAD qizi.



MAQTANCHOQAYI

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Badaxshon degan joyda qalin o'rmonzorda kattakon qo'ng'ir ayiqpolvon yashar ekan. U juda kuchli, bahaybat bo'lsa ham epchil ekan. Lekin uning bir yomon odati bor ekan: "Men ham mangiz dan kuchliman" deya maqtanaverarkan.

Bir kuni u o'rmondagi barcha jonivorlarni to'plab: - Meni shu yerda

kutinglar, sizlarni bir mehmon qilaman, - debdi do'rillab.

- Nima bilan mehmon qilasan, polvon? - deb so'rashibdi undan.

- Olib kelganimda ko'rasizlar, hayratdan og'zingiz ochilib qoladi, - deya maqtanibdi u yana.

...Jonivorlar uni uzoq kutishibdi, qorinlari ham juda ochqab ketibdi. Shu payt yuz-ko'zları shishgan, yunglari hurpayib ketgan "polvon" qup - quruq qaytib kelibdi. - - - Nima gap, tinchlikmi?

so'rashibdi undan jonivorlar bezovta bo'lib. U bo'lsa sirboy bermay:

- Qo'shni qishloqda bir bo'ri qo'ylarga hujum qilayotgan ekan. Bechora qo'ylarni qutqardim. Farosatli jonivorlar uning yolg'on gapirayotganini darhol sezib olishibdi.


- Yuz-ko'zlarin nimaga shishib ketdi? - deb so'rashibdi ular.

Ayiq nima deb javob berishni bilmay turganda, bordan arilar galasi uchib kelib uni talay boshlashibdi.



"Polvon" o'zini suvgashashlab, bazo'r qutilib qolibdi. Jonivorlar esa uning qilgan ishidan ranjib, o'rmonga kirib ketishibdi. Shu-shu ayiqpolvon hecham maqtanmaydigan bo'libdi.

Malika RAXMONBEKOVA.



O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasি

Muassislar:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MATBUOT QO'MITASI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOIY HARAKATI, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:

Umida ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Shuhrat AHMEDOV,

Jamoliddin FOZILOV,

Oynisa

MUSURMONOVA,

Komil YUSUPOV,

Mukarrama

MURODOVA,

Sunnatilla QO'ZIYEV,

Ergashvoy SARIQOV.

Noshir
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahilafandi.

Hajmi A-3, 2 bosma taboq.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiadortlik kompaniyasida 58.519 nuxsada ofset usulida bosildi.

Korxona manzili:
"Buyuk Turon"
ko'chasi, 41.
Buyurtma № Г-2892

Gazetani
Abduhamid
ABDUG'AFFOROV
sahifaladi.
Navbatchi:
Muhammara
PIRMATOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08